

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужонпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY Hujjatlar TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF AESTHETIC PERCEPTION IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Ibrakhimova Dilorom Saloydinovna

Teacher of the State Technical University

E-mail: diloromibraximova@gmail.com

Abstract. The article analyzes the features of aesthetic perception in the digital environment of modern society. Based on socio-philosophical and aesthetic approaches, the influence of information and communication technologies, digital media, virtual space, and social networks on human aesthetic experience is examined. The differences between traditional and digital forms of aesthetic perception are identified, and the transformation of aesthetic values in digital culture is analyzed. Special attention is paid to the issues of massification, virtualization, and democratization of aesthetic perception.

Keywords: aesthetic perception, digital environment, digital culture, aesthetic consciousness, media aesthetics, virtual space.

RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI

Ibraximova Dilorom Saloydinovna

TDYU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda raqamli muhit ta'sirida estetik idrokning shakllanishi, uning mazmuniy va funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli media, virtual makon va ijtimoiy tarmoqlar insonning estetik tajribasiga ko'rsatayotgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy va estetik yondashuv asosida yoritilgan. Maqolada estetik idrokning an'anaviy va raqamli shakllari o'rtasidagi farqlar ochib berilib, raqamli muhitda estetik qadriyatlarning transformatsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, estetik idrokning demokratiklashuvi, ommaviylashuvi va virtuallashuvi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: estetik idrok, raqamli muhit, raqamli madaniyat, estetik tarbiya, virtual makon, ommaviy madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N12>

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari inson hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, madaniyat, san'at va estetika sohalariga chuqur kirib keldi. Raqamli muhit nafaqat axborot almashinuvini tezlashtirdi, balki insonning borliqni estetik anglash usullarini ham o'zgartirdi.

Xususan, vizual axborotning ustuvorligi, interaktiv platformalarning keng tarqalishi va virtual reallik elementlarining hayotga joriy etilishi estetik idrokning an'anaviy shakllarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Agar an'anaviy estetik tajriba asosan san'at asarlari bilan bevosita muloqotga tayangan bo'lsa, raqamli muhitda estetik idrok ko'pincha ekran orqali, medialashgan va fragmentar ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu holat estetik tajribani tezkor, ommaviy va global xarakter kasb etishiga olib kelmoqda.

Estetika fanining kategoriyalari — goʻzallik, nafosat, ulugʻvorlik raqamli muhitda yangi mazmun kasb etmoqda. yaʼni ular virtual makon, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli sanʼat va multimedia vositalari orqali namoyon boʻlib, insonning estetik didi, idroki va qadriyatlariga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Bugun goʻzallik vizual effektlar, dizayn va interfeys orqali qabul qilinsa, nafosat raqamli madaniyatda minimalizm va uygʻunlik shaklida ifodalanmoqda, ulugʻvorlik esa innovatsion texnologiyalar va keng qamrovli axborot makoni orqali yangicha estetik tajriba sifatida anglanmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda estetik idrokning xususiyatlarini oʻrganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Estetik idrok inson ongining borliqni hissiy va obrazli qabul qilish shakli boʻlib, u estetik ongning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Klassik estetikada estetik idrok, avvalo, tabiat va sanʼat asarlarini bevosita his qilish jarayoni sifatida talqin etilgan.

Estetik idrok masalasi toʻridan toʻgʻri inson estetik tarbiyasiga daxldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli taʼsirga ega. Chunki, estetik idrokning oʻziga xos xususiyati avvalo, badiiy ijodning tabiatiga hamda sanʼatning ijtimoiylik mohiyatiga taʼsir koʻrsatishi bilan belgilanadi[1]. I.Kant estetik idrokni manfaatsiz zavq bilan bogʻlasa [2], G.V.F.Gegel uni badiiy obraz orqali mutlaq gʻoyani anglash jarayoni sifatida izohlagan [3].

Zamonaviy estetikada esa estetik idrok ijtimoiy-madaniy kontekstda, media va kommunikatsiya vositalari bilan bogʻliq holda oʻrganilmoqda. Bu yondashuv estetik tajribani faqat individual hissiy qabul qilish jarayoni sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy muhit, madaniy meʼyorlar va axborot oqimlari taʼsirida shakllanuvchi murakkab fenomen sifatida talqin qilishga imkon beradi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, raqamli media, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar estetik obrazlar, qadriyatlar hamda ideallarni yaratish va tarqatishda asosiy vositaga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, estetik idrok medialashgan voqelikda shakllanib, vizual, audiovizual va interaktiv elementlar orqali amalga oshmoqda. Bu jarayon estetik tajribaning tezkorligi, fragmentarligi va ommaviy xarakter kasb etishi bilan izohlanadi. Natijada estetik idrok nafaqat sanʼat asarlarini qabul qilish bilan cheklanib qolmay, balki kundalik hayotdagi media mahsulotlar, reklama, dizayn va raqamli kontent orqali ham shakllanadi.

Bunday sharoitda estetik idrokning ijtimoiy tabiati yanada yaqqol namoyon boʻlib, u jamiyatdagi madaniyat, ideologik jarayonlar va kommunikatsiya strategiyalari bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanadi. Demak, zamonaviy estetikada estetik idrokni tahlil qilish media estetika, madaniyatshunoslik va ijtimoiy falsafa bilan integratsiyada olib borilishini taqozo etadi.

Raqamli muhit — axborotni elektron shaklda yaratish, saqlash va tarqatishga asoslangan ijtimoiy-madaniy makondir. U internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va virtual reallik tizimlarini oʻz ichiga oladi. Raqamli muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: globallik va chegarasizlik; tezkorlik va dinamiklik; interfaollik; vizual va audiovizual taʼsirning ustuvorligi[4].

Ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va raqamli sanʼat namunalari insonning estetik ehtiyojlarini qondirishda asosiy manbalarga aylanmoqda. Bu esa estetik idrokning ommaviy va standartlashgan shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan Instagram, TikTok va YouTube kabi platformalar foydalanuvchilarining estetik didini belgilovchi obrazlar, videolar va vizual trendlar orqali shakllantirilmoqda. Bu jarayonda foydalanuvchi nafaqat maʼlumotni qabul

qiladi, balki unga estetik baho beradi va bunday standartlar kundalik estetik idrokning bir qismiga aylanadi.

Raqamli muhitda estetik idrok vizual axborotga tayanadi. Rasm, video, animatsiya va dizayn elementlari estetik ta'sirning asosiy vositalaridir. Foydalanuvchi estetik obyektni faqat qabul qilmay, balki uni yaratish va transformatsiya qilish jarayonida ham ishtirok etadi. Raqamli estetik obyektlar ko'pincha reallikning virtual modellari bo'lib, shartli va simulyativ xarakterga ega.

Raqamli muhit estetik tajribani keng omma uchun ochiq qiladi, ammo bu ayni paytda estetik didning yuzaklashuviga ham olib kelishi mumkin. Chunki raqamli platformada vizual kontentning ommaviylashuvi estetik qadriyatlarning standartlashuvi qisqa va tez iste'mol qilinadigan shakllarga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan "viral aesthetic trends" – tez ommalashadigan trendlar murakkablik va mazmunning chuqur tahlilini talab qiladigan estetik tajribani estetik tajribani soddalashtirib yuboradi.

Raqamli muhitda estetik idrokni shakllantirish masalasi estetik tarbiya bilan uzviy bog'liq. Yosh avlodda tanqidiy estetik tafakkurni rivojlantirish, raqamli kontentni anglash va baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli muhit xavflari bilan bir qatorda shaxsiy estetik rivojlanish uchun noyob imkoniyatlarni yaratadi. Tegishli pedagogik yordam bilan video o'yinlardan tortib virtual muzeylargacha bo'lgan zamonaviy raqamli resurslar badiiy did, ijodiy va tanqidiy fikrlash, axloqiy va gumanistik qadriyatlarni rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi va muhim ta'lim funksiyalarini bajarishi mumkin[5].

Estetik tarbiya raqamli madaniyatning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va estetik qadriyatlarni saqlab qolishda muhim vosita hisoblanadi. Estetik tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas yoki birdan to'xtab qoladigan "mexanizm" ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Estetik tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning muayyan jabhalarida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi[7].

Biz raqamli muhitda estetik tarbiyani faqat cheklovlar orqali emas, balki ongli qabul va tahlil qilishni o'rgatish orqali shakllantirishimiz mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalarida raqamli media vositalari orqali estetik tarbiyani tizimli yo'lga qo'yish, uni alohida ta'lim yo'nalishi sifatida rivojlantirish zarur. Bu jarayonda raqamli platformalar, multimedia resurslari va vizual materiallar tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qilishi kerak.

Raqamli muhitda estetik tarbiya samarali bo'lishi uchun yosh avlodda tanqidiy fikrlash va vizual savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar raqamli kontentni shunchaki iste'mol qilmasdan, uning mazmuni, estetik sifati va ta'sir kuchini tahlil qila olishlari lozim. Bu esa ularni yuzaki vizual ta'sirlar va ommaviy estetik standartlarga ko'r-ko'rona ergashib ketishdan saqlaydi.

Shu bilan birga, interaktiv va virtual resurslardan oqilona foydalanish estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual muzeylar, 3D san'at obyektlari va ta'limiy video o'yinlar orqali estetik tajriba nafaqat qabul qilish, balki ijodiy ishtirok shaklida ham namoyon bo'ladi. Bu holat yoshlarda estetik did, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli muhitda estetik tarbiya jarayonida madaniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash alohida e'tibor talab qiladi. Shu sababli, pedagogik yondashuv orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan estetik me'yorlarni yoshlar ongiga singdirish muhimdir.

Shuningdek, estetik idrokni shakllantirishda ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Estetik tajribani tahlil qilishda media muhit, madaniy jarayonlar va ijtimoiy ta'sirlarni integratsiyalash estetik tarbiyani yanada mazmunli va samarali qiladi. Bu yondashuv yoshlarda nafaqat estetik did, balki ma'naviy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyat hissini ham rivojlantiradi.

Raqamli muhit zamonaviy jamiyatda estetik idrokning yangi xususiyatlarini shakllantirmoqda. Vizuallik, interfaollik, virtuallik va ommaviylik raqamli estetik idrokning asosiy belgilaridir. Ushbu jarayon estetik tajribaning boyishiga xizmat qilishi bilan birga, uning yuzakilashuvi xavfini ham yuzaga chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda estetik idrokni tizimli va kompleks ravishda ilmiy tahlil qilish, estetik tarbiyani raqamli madaniyat sharoitiga mos holda rivojlantirish hamda yosh avlodda tanqidiy estetik tafakkurni shakllantirish zamonaviy estetika fanining ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.Sher. B.Husanov "Estetika" o'quv qo'llanma – O'zbekiston faylasuflar jamiyati, T: 2010. 138-b.
2. I.Kant Critique of Judgment. – Cambridge, 2007.
3. G.Hegel Aesthetics: Lectures on Fine Art. – Oxford, 2010.
4. Y.Chen, Y.Peng, Y.Tan. Achieving Cultural Heritage Sustainability Through Digital Technology: Public Aesthetic Perception of Digital Dunhuang Murals Sustainability 2025, 17, 7887
5. Manovich L. The Language of New Media. – London, 2018.
6. Алевра Е.Г. Цифровая культура и ее влияние на эстетическое воспитание современной молодежи Современные наукоемкие технологии. 2025. № 9 S. 186-190
7. Xusanov B. Milliy estetik tarbiya taraqqiyotining ma'naviy tamoyillari Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).